

Matematika

III qism

4

99

÷

33



UO'K: 51(075.3)
KBK 22.1ya72
R 42

Repyova I. V.
Matematika. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, III qism /
I. V. Repyova. – Toshkent: "Novda Edutainment". 2023. – 120 b.

Taqrizchilar:

- N. M. Usmanova** – MMTV tasarrufidagi PMTIDUMning oliy toifali boshlang'ich
sinf o'qituvchisi;
- O. Sh. Yevstavyeva** – MMTV tasarrufidagi PMTIDUMning 1-toifali boshlang'ich
sinf o'qituvchisi.

Shartli belgilar:



**Og'zaki
topshiriq**



**Daftarda
ishlang**



**Mantiqiy
topshiriq**



**Juft bo'lib
ishlang**



Uyga vazifa

Eslatma: O'lchov birliklaridan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida kattalik birliklarini qo'llash to'g'risida"gi 10.01.2018-yil 21-sonli qaroriga muvofiq foydalanildi.

Salom, aziz bolajonlar!

To'rtinchi sinfning uchinchi qismida biz butun bo'lmagan sonlar bilan tanishamiz, ularni solishtirish, qo'shish va ayirish usullarini o'rganamiz. Butun bo'lmagan sonlarni yozishning qanday usullari borligini va bizni qanday butun bo'lmagan sonlar o'rab turganligini bilib olamiz.

Bundan tashqari, biz insonlar o'z hayotini yanada qulay va oson qilish uchun nimalarni o'rgangani va ixtiro qilganini tushunib yetamiz. Biz zamonaviy texnologiyalar va kasblar bilan tanishamiz.





Yondosh mavzu:
kanselariya buyumlari.

Bo'lish belgilari,
bo'linuvchi, bo'luvchi,
bo'linma.

1. Sinf uchun 24 ta qalam sotib olindi. Ular 3 ta jamoa o'rtasida teng taqsimlandi. Har bir jamoa nechta qalam oldi?

Nima deb o'ylaysiz, bu yozuvlar nimani anglatadi? Ularda qanday umumiylik bor? Ularning farqi nimada?

$$24 : 3 = 8$$

$$24 \div 3 = 8$$

$$\frac{24}{3} = 8$$

$$24/3 = 8$$

Matematikada bo'lishni turli usullar bilan yozish mumkin.
Ba'zi darsliklarda bo'lish quyidagicha yoziladi: $24 \div 3 = 8$.
Ba'zi darsliklarda esa bo'lish quyidagicha yoziladi: $24 : 3 = 8$.

Yuqori sinflarda bo'lish quyidagicha yoziladi: $\frac{24}{3} = 8$.

Kompyuterda nashrga tayyorlashda bo'lish quyidagicha yoziladi: $24/3 = 8$.

2. Turli usullarda berilgan bo'lishlarni bajaring.

$$48 \div 6$$

$$63 : 7$$

$$\frac{18}{6}$$

$$36/4$$

$$54 \div 9$$

$$90 : 10$$

$$\frac{42}{6}$$

$$28/7$$

$$112 \div 7$$

$$45 : 3$$

$$\frac{144}{4}$$

$$192/4$$

3. Bo'lishlarni bajaring. Bo'lishning to'g'riligini teskari amaldan foydalanib, tekshiring.

$$901644 : 3$$

$$281323 \div 7$$

$$513054/6$$

$$\frac{2240}{8}$$

4. Natijalarni taqqoslang.

$$\frac{16}{2} \text{ va } 21:3$$

$$\frac{84}{7} \text{ va } 66:3$$

$$189:9 \text{ va } 216:6$$

$$\frac{820}{4} \text{ va } 243 \div 3$$

$$171 \div 9 \text{ va } 112:7$$

$$\frac{1600}{5} \text{ va } 2520:7$$

5. 4 ta bloknot va 8 ta qalam uchun 84 000 so'm, 4 ta bloknot va 2 ta qalam uchun esa 63 000 so'm to'landi.

- Bitta bloknot va bitta qalam qancha turadi?
- 3 ta bloknot va 5 ta qalam qancha turadi?

6. Ifodalar yozing va ularning qiymatlarini hisoblang.

- Bir o'ram qog'ozning massasi 2 500 gramm. O'ramda 500 ta varaq bo'ladi. O'ramning chorak qismidagi qog'ozning massasi necha gramm?
- Qurilma bir soat ichida 480 ta sharikli ruchka ishlab chiqaradi. U 17 minutda nechta ruchka ishlab chiqaradi?
- Sovg'alar uchun 172 ta taqvim va undan ikki marta kam daftar sotib olindi. Jami nechta buyum sotib olindi?

7. Azizaning xaridlarini ko'rib chiqing.



Bir shisha yelim 19 600 so'm, chizg'ich 4 900 so'm, qaychi esa 16 700 so'm turadi. Ushbu ifodalar nimani anglatishini tushuntiring.

$$19\,600 \cdot 4$$

$$16\,700 \cdot 2$$

$$4\,900 \cdot 3$$

$$19\,600 \cdot 4 + 16\,700 \cdot 2 + 4\,900 \cdot 3$$

$$19\,600 - 16\,700$$

$$16\,700 + 4\,900$$



$$19\,600 : 4\,900$$

$$19\,600 \cdot 4 - 4\,900 \cdot 3$$

72. Bo'lish



8. Sxemalar bo'yicha tenglamalar tuzing va ularni yeching.



9. Berilgan ma'lumotlar asosida sonni toping.

Bu turli raqamlardan iborat to'rt xonali son

Uning birinchi raqami juft

Uning birinchi raqami ikkinchi va uchinchi raqamlarga bo'linadi

?

Bu sonda 1 raqami yo'q

Ikkinchi va to'rtinchi raqamlari yig'indisi 3ga teng



10. Bo'lishlarni bajaring.

$$51 \div 3$$

$$37581/3$$

$$\frac{4808}{4}$$

$$(2 \cdot 317 + 496) : 5$$

$$86 \div 2$$

$$12978/6$$

$$\frac{8515}{5}$$

$$42500 - 2478 : 6 \cdot 18$$

$$55 \div 11$$

$$89775/19$$

$$\frac{96072}{6}$$

$$5891 - (603 - 108) : 3$$



11. Murakkab masalalarni yeching.

Imtihon paytida har bir o'quvchiga 2 tadan qalam berilishi kerak. Qutida 8 ta qalam bor. Sinfda 32 nafar o'quvchi o'qiydi.



a) Imtihon uchun necha quti qalam sotib olish kerak?

b) Agar bir quti qalam 22000 so'm bo'lsa, qancha pul to'lash kerak?

d) Ushbu kupyurdan qancha qaytim qoladi?

Yondosh mavzu:
sharikli ruchkalar.

Bo'lish, bo'linuvchi,
bo'luvchi, bo'linma,
qoldiqli bo'lish.



1. Sharikli ruchkalar 2ta qutiga teng taqsimlangan. Keyin ularni 3, 4, 5 va 6 ta qutiga teng taqsimlash mumkin bo'ldi. Ruchkalar soni nechta bo'lishi mumkin?

30

28

56

60

100

150

2. Qoldiqsiz bo'lish qanday ruchka bilan yozilgan?

$$243:8$$



$$1427 \div 7$$



$$\frac{486}{12}$$



$$536:6$$



$$3595 + 15$$



$$5137/11$$



3. Taqqoslang.

$$\frac{48}{4} \text{ va } 456:12$$

$$1245 \div 15 \text{ va } 164:2$$

$$189:9 \text{ va } 216/6$$

$$\frac{171}{9} \text{ va } 133 \div 7$$

$$1000/100 \text{ va } 112/7$$

$$\frac{1600}{5} \text{ va } 2520/7$$

4. Sharikli ruchka pastasi taxminan 48 ming harfni yozish uchun yetadi. Bir so'zda o'rtacha 6 ta harf mavjud. Bitta A4 varag'idagi qo'lyozmaga 300 ta so'z sig'sa, bu sharikli ruchka nechta varaqni to'ldirishga yetadi?




73. Bo'lish



5. Sardorning aytishicha, sharikli ruchka pastasi eni 150 m, bo'yi esa enidan 5 marta uzun bo'lgan to'g'ri to'rtburchakni chizish uchun yetadi. Akmal esa bo'yi 400 m, eni bo'yidan 170 m qisqa bo'lgan to'g'ri to'rtburchakni chizish uchun yetadi, deb hisoblaydi. Agar sharikli ruchka pastasi 1500 m uzunlikdagi chiziqni chizishga yetsa, bolalardan qaysi biri haq?



6. Uchburchakning yuzi sharikli ruchka bilan bo'yaldi. Bu uchburchakning kataklar hisobidagi yuzi qanday? Bu yuz kvadrat santimetrlarda qanday bo'ladi?



7. Ifodalarni hisoblang. Ularning qiymatlari topshiriqlarning savollariga javob bo'ladi.

a) Birinchi sharikli ruchka qachon paydo bo'lgan?

$$43 + (21\,793 : 37 + 433 \cdot 3)$$

b) Birinchi gelli ruchka qachon paydo bo'lgan?

$$(2\,005 \cdot 8 - 704 \cdot 19) : (702 \cdot 860 - 603\,712) + 1\,651$$



8. Sonlar to'plamidan amallar komponentlari uchun sonlarni shunday tanlangi, berilgan natijalar hosil bo'lsin.

a) $\square : \square = 13$

b) $\square \div \square = 47$

d) $\square - \square = 17$

e) $\square + \square = 850$

f) $\square / \square = 41$





9. Masala uchun tenglamalardan mosini tanlang.

Madinaning onasi ko'k va yashil ruchkalardan jami 10 ta sotib oldi. U ko'k ruchkalarining yarmini Madinaga bersa, unda 6 ta ruchka qoladi. Madinaning onasi nechta ko'k ruchka sotib olgan?

$$x : 2 = 10 + 6$$

$$x : 2 = 10 - 6$$

$$x \cdot 2 = 10 - 6$$



10. Madina bilan Akmal bittadan natural son o'yladi. Bu sonlar qo'shilsa, 1345 hosil bo'ladi. Agar Madina o'zi o'ylagan sonning oxiriga 3 raqamini qo'shib yozsa, Akmal esa o'zi o'ylagan sonning oxiridan 2 raqamini o'chirib tashlasa, hosil bo'lgan sonlar bir xil bo'ladi. O'ylangan sonlarni toping.



11. Sonlarni yozing:

a) o'sish tartibida:

$$900 : 300; \quad 900 \div 3; \quad 900/30; \quad 906 : 3; \quad \frac{960}{60};$$



b) kamayish tartibida:

$$11616 : 11; \quad 72711 / 9; \quad \frac{55240}{5}; \quad 97500 \div 6; \quad \frac{12932}{4}.$$



12. Masalani jadval yordamida yeching.

Madina va Akmal do'kondan sharikli va gelli ruchka sotib oldi. Kim ko'p va qancha ko'p pul to'ladi?

	Sharikli ruchkalar	Gelli ruchkalar
	6 dona 1800 so'mdan	5 dona 4500 so'mdan
	4 dona 2500 so'mdan	6 dona 4200 so'mdan

Mundarija

72. Bo'lish.....	4
73. Bo'lish.....	7
74. Ulush va qismlar.....	10
75. Ulush va qismlar.....	13
76. Sonning qismini topish	16
77. Kattaliklarning qismlari.....	19
78. Kattaliklarning qismlari.....	22
79. To'g'ri va noto'g'ri kasrlar	25
80. Aralash kasrlar.....	28
81. Kasrlarning sonli nurda tasvirlanishi	31
82. Noto'g'ri kasrdan butun qismni ajratish.....	34
83. Aralash kasrni noto'g'ri kasrga aylantirish	37
84. Kasrlarni taqqoslash	40
85. Kasrlarni taqqoslash	43
86. Masalalar yechish	46
87. Masalalar yechish	49
Yakuniy dars.....	52
88. Kasrlarni qo'shish va ayirish	54
89. Kasrlarni qo'shish va ayirish	57
90. Kasrlarni qo'shish va ayirish	60
91. Aralash kasrlarni qo'shish va ayirish.....	63
92. Aralash kasrlarni qo'shish.....	66
93. Aralash kasrlarni qo'shish.....	69
94. Birdan ayirish	72
95. Birdan ayirish	75
96. Butundan aralash kasrni ayirish.....	78
97. Kasrlarni birlikdan o'tib ayirish	81
98. Kasrlarni birlikdan o'tib ayirish	84
99. Kasrlarni natural songa ko'paytirish.....	87
100. Masalalar yechish.....	90
Yakuniy dars	93
101. O'nli kasr.....	95
102. O'nli kasrlarning xonalari. O'ndan birlar.....	98
103. O'nli kasrlarning xonalari. Yuzdan birlar	101
104. O'nli kasrlarning xonalari. Mingdan birlar	104
105. Uzunlikning o'nli ulushlar ko'rinishida yozilishi	107
106. Uzunlikning o'nli ulushlar ko'rinishida yozilishi	110
107. Massaning o'nli ulushlar korinishida yozilishi	112
108. Foiz	114
Yakuniy dars	116

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga

murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

4-sinf matematika III qism kitobini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.

Telegram kanalimiz:

[@Maktablar_uchun_hujjatlar](https://t.me/@Maktablar_uchun_hujjatlar)



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT qilib beriladi.**

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT

QILMANG.